

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“SPORT TURLARI VA UNI TASHKIL ETISH”

**MODULINING
O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI**

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Jismoniy tarbiya

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylar pedagog xodimlari

Buxoro– 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil “25” avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Jismoniy tarbiya” yo‘nalishi bo‘yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini malakasini oshirish kursining o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Ibragimov M.B.** – BuxDU, Sport faoliyati kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD).

Taqrizchilar: **Kadirov R.X** – BuxDU, Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası professori, p.f.n.

Ibragimov B.B. – O‘zbekiston regbi federatsiyasi ijrochi direktori, p.f.f.d.(PhD).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	18
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	48
V. GLOSSARIY	56
VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69

I. ISHCHI DASTUR

I. IShChI DASTUR.

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning "Sport turlari va uni tashkil etish" fani orqali sport o'yinlari (regbi, futzal, futbol)ning rivojlanish tarixi va bosqichlari, zamonaviy o'yin qoidalari va musobalarni o'tkazish metodlari, zamonaviy o'yin texnikasi va taktikasi, shuningdek, xorijiy mamlakatlar jismoniy tarbiya va sport ta'lim tizimidagi tajribalarni o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarning "Sport turlari va uni tashkil etish"ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni, o'yinlarning zamonaviy texnikasi va taktikasi, sport o'yinlaridan musobaqalarni o'tkazish texnologiyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar jismoniy tarbiya va sport ta'lim tizimidagi tajribalarning nazariyasi hamda amaliyoti bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) o’yinini kelib chiqishi va bosqichlari;
- “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) bo’yicha dastlabki Jahon, Yevropa chempionatini o’tkazilishi hamda olimpiada o’yinlari;
- “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol)ning qoidolari, maydoni va jihozlarni o’lchamlari;
- Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik mahoratni namoyish etishda ilg’or tajribalardan foydalanish;
- “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) texnikasi va taktikasi tasnifi, maydon o’yinchisining texnikasi va taktikasini o’rgatishdan iborat.

Modul bo’yicha tinglovchilarning bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalariga qo’yiladigan talablar

“Sport turlari va uni tashkil etish” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) kelib chiqishi, dastlabki o’yinlar, uchrashuvlarni o’tkazilganligi, Yevropa davlatlariga tarqalishi, Olimpiada o’yinlari dasturiga kiritilishi hamda O’zbekistonda jismoniy tarbiya tizida tutgan o’rni va ahamiyati haqida;

federatsiyalarning tashkil topishi, faoliyati va ular rahbarligida musobaqalarni o’tkazilishi, dastlabki Jahon, Yevropa chempionatlari olimpiada o’yinlari hamda o’yinlarning qoidolari, maydoni va jihozlarni o’lchamlari haqida;

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) texnikasi, maydon o’yinchisining texnikasi bo’yicha nazariy ma’lumot berish va amaliy o’rgatishni;

to’p bilan va to’psiz harakatlanish texnikasini zamonaviy yo’llarini;

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) taktikasi, o’yinlarda hujum va himoya taktikalarini bilishi kerak.

Tinglovchi:

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari tushuntira olish;

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) zamonaviy o’yin qoidalari, maydon jihozlari va musobalarni o’tkazish;

“Sport turlari va uni tashkil etish”da hozirgi zamon o’yin texnikasi;

Jahon va yurtimizda qo’llanilayotgan zamonaviy o’yin taktikalarini o’rgatish va baholash ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim

Tinglovchi:

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlarini tasniflash;

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) zamonaviy o’yin qoidalari, maydon jihozlari va musobalarni o’tkazish mazmun-mohiyatini tushunib olish;

“Sport turlari va uni tashkil etish”da hozirgi zamon o’yin texnikasini o’zlashtirish;

Jahon va yurtimizda qo’llanilayotgan zamonaviy o’yin taktikalarini o’rgatish va baholash tajribalarni umumlashtirish malakalariga ega bo’lishi zarur.

Tinglovchi:

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) bo’yicha mashg’ulot olib borish;

akademik litsey o’quvchilari bilan o’tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida sport o’yinlariga doir texnologiyalarini qo’llay olish;

akademik litseylarda sport musobaqalarini rejalashtirish va tashkil qilish;

“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) o’yinlaridan mashg’ulot olib borishga oid ilg’or xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy etish kompetentsiyalariga ega bo’lishi lozim.

O'QUV MODULI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Jami	Umumiy auditoriya soati	Jumladan	
				Nazariy	Amaliy
1.	“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari	2	2	2	
2.	“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) zamonaviy o'yin qoidalari va musobaqalarni o'tkazish metodikasi.	2	2	2	
3.	“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) sportlarida zamonaviy o'yin texnikasi va taktikasi	2	2		2
4.	“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) sportlarida jismoniy tayyorgarlik	2	2		2
	Jami	8	8	4	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari (2-soat nazariy).

REJA:

1. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari.
2. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) yevropa davlatlariga tarqalishi, olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilishi.
3. Sport o'yinlar orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodlari.

2-mavzu: “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) zamonaviy o’yin qoidalari va musobaqalarni o’tkazish metodikasi. (2-soat nazariy).

REJA:

1. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) federatsiyalarining tashkil topishi, faoliyati va ular rahbarligida musobaqalarini o’tkazish.
2. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) tashkil etish metodikasi.
3. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol)ning qoidalari, maydoni va jihozlarining o’lchamlari.

AMALIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) sportlarida zamonaviy o’yin texnikasi va taktikasi (2 soat amaliy).

REJA:

1. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol)da hujum va himoya taktikalar bo’yicha amaliy mashqlar bajarish.
2. O’yinlarda jamoaviy, guruhli va yakka holda hujum va himoya taktikalari bo’yicha amaliy mashqlar bajarish.
3. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol)da hujumga qarshi tez hujum taktikalari, o’yinchilarni joylarini almashtirish, to’psiz harakat qilish texnika va taktikalari bo’yicha amaliy mashqlar bajarish.

2-mavzu: “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) sportlarida jismoniy tayyorgarlik (2-soat amaliy)

REJA:

1. Ta’lim muassasalarida o’tkaziladigan jismoniy tarbiya va sport darslarida sport o’yinlarni tashkil qilish va o’tkazishga o’rgatish.

2. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) sport turlarida kuch va jismoniy tayyorgarlik.

3. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) bo'yicha amaliy mashqlar bajarish.

4. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) sport turlarida jarohat va uni oldini olish.

O‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar

Mazkur modul ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

-ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

-o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash usullarini qo'llash nazarda tutiladi.


II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta’lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.


Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

3. “Konseptual jadval” GO

Ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlarini bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda ta’lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:



4. “Baliq skeleti” GO

Ta'lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

5. "Insert" GO

Yangi mavzu bo'yicha o'quvchi (ta'lim oluvchi)larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

6. "Klaster" GO

"Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

7. "Munosabat" metodi

Texnologiya ta'lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqib olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

8. "Nilufar guli" GO

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta "gulbarg" (kvadrat, to'rtburchak yoki aylanalar)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida

asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

9. “Reja” metodi

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo’lim yoki boblar bo’yicha o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo’llash ta’lim oluvchilardan o’rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o’zlashtirish, asosiy g’oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo’lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo’llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo’nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.


10. “T-jadval” GO

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o’zaro solishtirish, qiyoslash asosida o’rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko’ra batafsil yoritish maqsadida qo’llaniladi. Ko’p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo’llaniladi.

11. “SWOT-tahlil” strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to’rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta’lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o’rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to’rt jhati tahlil qilinadi:



Grafik organayzer ta'lim oluvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Тушунчалар	(Ф)	(С)	(М)	(У)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

13. “Qarama-qarshi munosabat” strategiyasi

Strategiya o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo'lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:


Таянч тушунчалар			
№	Муҳим тушунчалар	№	Муҳим бўлмаган тушунчалар
1.		1. 2.	

14. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari.

REJA:

- 1.1. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari.
- 1.2. “Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) yevropa davlatlariga tarqalishi, olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilishi.
- 1.3. Sport o'yinlar orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodlari.

Tayanch so'zlar: futbol tarixi, regbi, futzal federatsiya, assotsiatsiya, jahon chempioni, yugurish, sakrash, tezlik, kuch, chaqqonlik.

1.1.“Sport turlari va uni tashkil etish”ning (regbi, futzal, futbol) rivojlanish tarixi va bosqichlari.

Futbol eng qadimiy o'yinlardan biridir. Ingliz-larning e'tirof etishlaricha, oyoq bilan to'p o'ynash Britan orollarida IX asrdayoq juda mashhur bo'lgan.

1863 yil 26 oktabrda Londonda Angliya futbol uyushma-sining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13 moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan. Keyin-chalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yinining asosi bo'lib qoldi.

1863-yil esa rasmiy ravishda zamonaviy futbol an'anasi tug'ilishi yili hisoblanadi. Tarixda birinchi futbol klubi “Sheffild Yunayted” hisoblanib, u 1855-yilda tashkil etilgan (tuzilgan). XIX asrning 70-yillarida esa Angliya Futbol Assotsiatsiyasi tarixda futbol bo'yicha birinchi rasmiy Assotsiatsiya kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi. Bu esa dunyodagi qadimiy umummilliy futbol turniri edi. Bu trafeyning birinchi sovrindori “Uanderers” klubi bo'ldi. 17 yildan so'ng proffessional futbol liga chempionati o'tkazila boshlandi. Birinchi chempion unvonini “Preston Nors Endi” klubi qo'lga kiritishadi.

1872-yil futbol bo'yicha birinchi xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Angliya va Shotlandiya futbol terma jamoalari kurash olib bordi, uchrashuv 0:0 hisobida yakuniga yetgan. Qiziqarlisi shundaki, shotlandiya-liklarning terma jamoa vakillari nomidan chiqmay, balki, mamlakatning eski klubi – “Kuins Park” Angliya terma jamoasiga qarshi bo'lgan uchrashuvda qatnashgan. Shotlandiya Futbol Assotsiatsiyasi esa bu o'yindan bir necha oydan keyin tashkil qilingan. Bunday Assotsiatsiya Uelsda 1875-yilda tashkil topadi, 1880-yilda esa Irlandiyada tashkil etiladi.

Shundan so'ng juda yaqin vaqtda Angliyalik dengizchilar va savdo sotuvchilar harakati bilan futbol o'yini dunyoning barcha joylarida (boshqa mamlakatlarda) tarqala boshladi. Birinchi navbatda Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida, asrning oxirigacha Daniya, Gollandiya, Chili, Argentina, Belgiya va boshqa davlatlarda futbol assotsiatsiyalari tashkil etila boshlanib, joylarda milliy birinchilik o'yinlari o'ynaldi.

Futbolga oid ilk qoidalarni 1848-yilda Kembridjning futbol jamoasi amalga kiritgan, afsuski bu qoidalar matni bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan ilk futbol qoidalari 1863-yil 8-dekabrda nashr ettirilgan va ular quyidagilardir:

1. Maydon uzunligi 183 metr, kengligi 91,5 metrdan oshmasligi kerak. Maydon burchaklarida bayroqchalar turishi kerak. Darvozalar ikki (metall, yog'och, daraxt) ustunlaridan iborat bo'lib, ular bir-biridan 7,32 metr uzoqlikda joylashgan. Darvoza to'sini (perekladina) bo'lmagan.
2. O'yin boshlanishida jamoalarning qaysi tomon darvozani tanlashi qur'a tashlash orqali amalga oshirilgan. O'yinda qaysi jamoa to'pni maydon markazidan boshlashi, jamoadan bitta o'yinchining to'p tepishda (jonglyorlik qilish) g'olib chiqqani maydon markazidan birinchi bo'lib to'pni o'ynashni boshlagan. O'yinni boshlayotgan jamoa to'pga tegmaguncha raqib jamoa o'yinchilari to'pdan radiusi 9,1 metr uzoqlikda bo'lishi kerak bo'lgan.
3. o'yin vaqtida to'p darvozaga kiritilgach jamoalar darvozalarini almashtirishgan.

4. O'yindan tashqari holat va autlar hisobga olingan (zamonaviy futbolda bo'lgani kabi).
5. Qo'l bilan o'ynash ta'qiqlangan.
6. O'yinda o'yinchilarni yiqitish, urish, poypechak berish ta'qiqlangan.
7. Temir jism bo'lgan poyafzalda o'ynash taqiqlangan.
8. Himoyalalanayotgan jamoa vakili to'pni maydon tashqarisiga chiqarib yuborsa, to'pni oxirgi marta tekkan joyidan erkin zarba bilan o'yinchi kiritadi. Agar to'p hujum qilayotgan jamoa a'zolari tomonidan maydonni tark etsa, u holda darvoza chizig'idan 13,6 metrdan erkin zarba bilan to'p o'yinga kiritiladi.

Futbol o'yinining ilk qoidalarida belgilanishicha, maydon uzunligi 200 yard (183 metr)dan, kengligi 100 yard (91 metr)dan oshiq bo'lmasligi kerak. Darvozalar ikki ustundan iborat bo'lib, ular orasida to'sin bo'lmagan va ustunlar orasidagi masofa 8 yard (7,32 m) bo'lgan. 1866 yilda balandlikni cheklash uchun ustunlar orasiga arqon tortib qo'yilgan. Yana 10 yil o'tib, bu arqonni yog'och to'singa almashtirishgan.

Darvozabonning qo'l bilan o'ynashga haqqi yo'q edi. 1871 yilda o'ng qo'l bilan o'ynashga ruxsat berilgan, u ham bo'lsa faqat darvoza maydoni ichida. Darvozabonning jarima maydoni ichida ham qo'l bilan o'ynash huquqini qo'lga kiritishi uchun 30 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ladi (1902).

Uzoq vaqt mobaynida na jarima to'pi, na 11 metrlik zarba bo'lgan. Qoidabuzarlik uchun erkin zarbalar bilan chegaralanib qolinaverardi. Nihoyat, 1891 yil eng qat'iy jazolardan biri – 11 metrlik zarba kiritildi, uni inglizcha so'z bilan «penalti» deb ataydilar.

Futbol shakllanayotgan davrlarda jamoa sardorlari o'yin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib turardilar. Futbol maydonida hakam 1880 yilda paydo bo'ldi, 1 yildan so'ng esa hakam ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqa boshladi. Hushtak 1878 yilda kiritildi, bunga qadar hakam to'xtatish yoki o'yinni qayta boshlash uchun ovozdan yoki qo'l harakatlaridan foydalanardi. O'sha yillarda barcha milliy futbol uyushmalari uchun qoidalar bir xil yoki majburiy bo'lmagan. Har bir uyushma o'z xohishiga ko'ra bu qoidalarga turli o'zgartirishlar kiritishi

mumkin edi. Bu vaziyat xalqaro uchrashuvlar o'tkazish yoki xalqaro musobaqalar tashkil etishda qiyinchiliklar tug'dirardi.

1882 yili to'p mustaqil futbol ittifoqlari, ya'ni Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya ittifoqlarining birlashuvi bo'lib o'tdi. Bunda yagona qoidalar qabul qilindi va futbol qoidalarida u yoki bu o'zgarishlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan xalqaro Kengash tasdiqlandi.

1871 yilda Angliyada mamlakat Kubogining yo'nalishi tasdiqlandi. Bu kubok uchun hozirda ingliz futbol klublari kurash olib boradilar xalqaro miqyosdagi ilk futbol uchrashuvi Angliya va Shotlandiya jamoalari o'rtasida 1873 yilda bo'lib o'tdi. O'yinchilar soni 11 kishidan ortiq bo'lsa, ularning jamoadagi joylashishi hozirgidan boshqacharoq bo'lgan. Angliya jamoasida 7 ta o'yinchi hujumda, 1 tasi yarim himoyada bo'lgan, shuningdek, 2 ta himoyachi va 1 ta darvozabon bo'lgan. Shotlandiya jamoasi tarkibida esa 6 ta hujumchi, 2 ta yarim himoyachi bo'lgan edi.

XIX asrning 80-yillarida futbol o'yini Yevropa qit'asidagi mamlakatlarga yoyila boshladi. 1875 yilda futbol Gollandiyaga, keyinroq esa Daniyaga kirib keldi. 1882 yildan boshlab Shveysariyada, 1890 yildan Chexiyada, 1897 yildan esa Rossiyada futbol o'ynay boshladilar.

1882 yilda xalqaro uyushmalar boshqarmasiga asos solindi. Nihoyat, 1904 yil 21 mayda Fransiya tashabbusiga ko'ra hozirda 200 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan Xalqaro Futbol Uyushmasi – FIFA tashkil etildi. FIFA bilan bir qatorda 1954 yildan boshlab Yevropa Futbol ittifoqi – UEFA ham faoliyat ko'rsatadi.

1930 yildan boshlab har 4 yilda futbol bo'yicha jahon chempionati, 1958 yildan boshlab esa milliy terma jamoalar qatnashadigan Yevropa chempionatlari o'tkazilib kelmoqda. 1900 yilda futbol olimpiya sport turiga aylandi, ammo rasmiy jihatdan u Olimpiya o'yinlari dasturiga 1908 yilda kiritilgan.

Osiyo Futbol konfederatsiyasi (OFK) 1954 yili tuzilgan bo'lib, hozirgi vaqtda 44 ga yaqin mamlakatlarni birlash-tiradi.

O'zbekiston Futbol federatsiyasi 1994 yildan FIFA va OFK ga a'zo bo'lgan, hozirda FIFA va OFK tomonidan o'tkaziladigan barcha rasmiy musobaqalarda qatnashib kelmoqda.

Regbi

Regbi bilan o'xshash o'yinlar turli vaqtlarda turli xalqlar orasida mashhur bo'lgan: qadimgi Misr aholisidan tortib Janubiy Amerikadagi hindulargacha. Ushbu o'yinlardan biri "Garpastum"—rim legionerlari bundan o'yin-kulgi sifatida va shu bilan birga harbiy tayyorgarlik vositasi sifatida foydalanishgan. Jamoalarga bo'lingan holda, jangchilar to'pni erga ikkita nayzadan yasalgan "darvoza" ga tushirishga harakat qilishdi. Shunga o'xshash o'yin ("yepizyros" deb nomlanadi), unda ikkala qo'l va oyoq o'ynashga ruxsat berilgan, Spartada odatiy hol edi. Bizning davrimizning boshlarida. rimliklar tufayli ular Britaniya orollaridagi harpastum haqida bilib oldilar.

O'rta asrlar va Uyg'onish davrida Evropada ko'plab to'p o'yinlari keng tarqalgan edi, ular zamonaviy futbol va regbi o'rtasidagi o'zaro faoliyat edi. Ularning maqsadi har qanday yo'l bilan to'pni raqibning «hududiga» tushirish edi. Masalan, Florensiyada o'yinlar hanuzgacha "tarixiy futbol" da o'tkazilmoqda. An'anaga ko'ra, Ispaniya qiroli Charlz V qo'shinlari shaharni qamal qilishgan va mahalliy aholi Santa-Krosk maydonida ruhiy kayfiyatni ko'tarish uchun "futbol" o'yini o'tkazishga qaror qilishgan 1530 yildan boshlanadi. Aynan mana shu maydonda "tarixiy futbol" har yili 24-iyul kuni o'ynaladi. O'rta asrlardagi kostyumlardagi futbolchilar ikki tomondan to'r bilan maxsus to'silgan maydonda chiqishadi. Ular to'pni unga biron bir usul bilan tashlashga harakat qilishadi. Hech qanday cheklovlar yo'q. Va o'yin menejeri faqat musobaqani ochadi va yopadi va hisobni kuzatib boradi, u o'yin jarayoniga aralashmaydi.

Ehtimol, bu o'yinni Angliyadan qochib ketgan va keyin o'z vatanlariga qaytib kelgan yurtdoshlarini tanishtirgan qiroli Charlz I tarafdorlari ko'rgan. Ammo Angliyaning tub aholisi - qarzga olingan garpastum va "Florensiya futboli" dan tashqari, o'tmishdagi shafqatsiz urf-odatlarga asoslangan o'z o'yinlari ham bor edi.

Shunday qilib, rimliklar ularda g'alati marosimni payqashdi: jangdan keyin dushmanlarning kesilgan boshlarini oyoqlari bilan tepish.

Vaqt o'tishi bilan o'yinda ma'lum qoidalar paydo bo'ldi. Undan quvvat elementlari olib tashlandi, darvoza paydo bo'ldi, o'yinchilar soni aniqlandi. Zamonaviy regbidan sezilarli farq shundaki, unga to'pni faqat oyoq bilan urishga ruxsat berildi - shuning uchun o'yin nomi "futbol" (ingliz futboli - so'zma-so'z. Oyoq to'pi).

Odatda oddiygina regbi deb nomlanuvchi regbi ittifoqi - bu 19-asrning birinchi yarmida Angliyada paydo bo'lgan to'liq kontaktli jamoaviy sport turi. Regbi futbolining ikkita kodidan biri bu to'pni qo'lida ushlab yugurishga asoslangan. Regbi 2 jamoa (har biri 7 yoki 15 kishidan) uzunligi 27–29 sm bo'lgan tuxumsimon shakldagi to'p bilan N simon darvozali maxsus maydonchada (kattaligi 95-100x65-68 m) o'ynaydi. O'yin (40 minutdan 2 taym davom etadi) gan maqsad - to'pni bir-biriga qo'lida (orqaga) yoki oyoqqa (xohlagan yo'nalishda) oshirib, uni raqib maydonidagi darvoza chizig'i orqasiga tushirish yoki darvozaga kiritishdan iborat. Raqibni ushlab yoki yelka bilan turtib yiqitib, unga halaqit berish mumkin.

O'yin qoidasi buzilganda «olishuv» - to'p talashish belgilanadi. Ko'p ochko to'plagan jamoa (to'pni yerga tegizish - 4 ochko, tupni darvozaga kiritish - 3 yoki 2 ochko) yutgan hisoblanadi. Bu o'yin Qadimgi Xitoy va Qadimgi Rimda tarqalgan. Zamonaviy Regbi o'yini 1823 yil 7 aprelda Regbi shahrida (Londondan 80 km shimoli-g'arbda) mahalliy kollej jamoalari o'rtasida futbol o'yini bo'lib o'tdi. Bir payt Uilyam Uebb Ellis ismli o'yinchi jamoasini mag'lubiyatdan qutqarishga harakat qildi, to'pni qo'llari bilan ushladi, birovning oldiga yugurdi va "gol" urdi. Qoidalarni buzgani uchun uni darhol maydondan chetlatishdi. Shunga qaramay, Ellisning yangiliklari qabul qilindi: qo'llar bilan o'ynashga imkon beradigan futbol turi paydo bo'ldi. (Ba'zi tarixchilar Ellisning regbi haqidagi muallifligi haqida bahslashishadi va "tarixiy o'yin" voqeasi sport folklorining bir

qismi hisoblanadi. Ammo Jahon kubogi ishtirokchilari kurashayotgan asosiy sovrin. – "havaskor" regbi eng nufuzli musobaqasi - Ellis nomini olgan.)

Ko'p o'tmay, "regbi o'yini" Angliyadagi turli o'quv muassasalarida tan olindi. 1840 yillarning oxirida futbolning birinchi "alternativ" qoidalarini ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq ikkala oyoq va qo'l bilan o'ynashga ruxsat berildi, ammo faqat orqaga yoki yon tomonga o'tish mumkin edi. Vaqt o'tishi bilan maydonda gol va o'yinchilar soni o'zgarib bordi - va o'yinning mohiyati (shu vaqtdan boshlab nafaqat to'pni darvozaga kiritibgina qolmay, balki raqib darvozasiga "qo'ndirish" mumkin edi). To'pning o'zi ham uning futboldagi "akasi" ga o'xshamas edi: oval shakli tufayli regbi "qovun" ni ushlab turish osonroq edi va yugurishda o'ziga siqib qo'ydi.

Regbi qoidalarini kodlashtirish bo'yicha birinchi tasdiqlangan urinish 1845 yilda Regbi maktabi o'quvchilari tomonidan amalga oshirildi. 1848 yilda Kembrij universiteti talabalari o'zlarining qoidalar loyihalarini chiqardilar, bu futbol o'yinlarini o'tkazishda birinchi yagona qoidalar bo'ldi.

1863 yil oktabr oyida Londonda turli maktab va klublar vakillarining yig'ilishida futbolning o'zi va regbi futboliga yakuniy bo'linish bo'lib o'tdi.

1871 yilda Angliyada regbi futbol ittifoqi tashkil qilindi, u o'yinning birinchi rasmiy qoidalarini ishlab chiqdi. 1873 yilda shunga o'xshash Ittifoq Shotlandiyada, 1874 yilda Irlandiya va Shimoliy Irlandiyada, keyinchalik Irlandiya regbi ittifoqiga, 1881 yilda Uelsda paydo bo'ldi.

O'yin hozirgi ko'rinishini olish uchun uzoq vaqt davom etdi. Masalan, regbi tarixidagi birinchi xalqaro o'yinda (1871, Angliya va Shotlandiya o'rtasidagi) maydonda har bir jamoadan 20 kishi o'ynagan. Bir necha yil o'tgach, 15 o'yinchi formati umuman qabul qilindi. Skor tizimi ham bir necha bor o'zgargan. Bir vaqtlar faqat urilgan gollar hisobga olindi, jamoaga gol urishga urinishlar olib kelmadi, faqat unga to'pni tepish huquqini berishdi. Keyinchalik urinishlarni hisobga olishga qaror qilindi - agar kiritilgan gollar teng bo'lsa. Keyin uchta urinish bitta maqsadga tenglashdi va hokazo. 1888 yilda Regbi bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. 1900, 1908, 1920, 1924 yilda Regbi Olimpiada o'yinlari

dasturiga kiritildi. Regbi Xalqaro havaskorlar federatsiyasi FLRA (1934 yil tuzilgan) ga 40 dan ortiq mamlakat a'zo. 1960 yildan FLRA Kubogi (norasmiy jahon chempionati) o'tkaziladi. Regbi sporti O'zbekistonda 1969 yil «Lokomotiv» jamiyati huzurida vujudga keddi. 1970-71 yillarda Toshkent politexnika institutida Regbichilar jamoasi tashkil qilindi. 1982-91 yillarda Regbi buyicha Jonibekov kubogi musobaqalari o'tkazildi. O'zbekiston terma jamoasi xalqaro musobaqalar (1988, Buyuk Britaniya, 1989, Koreya Respublikasi) da ishtirok etdi.

Regbi ittifoqi - bu har xil yoshdagi erkak va ayol futbolchilar o'ynaydigan dunyo bo'ylab mashhur sport turi. 2014 yilda dunyo bo'ylab 6 milliondan ortiq kishi o'ynagan, ulardan 2,36 millioni ro'yxatdan o'tgan futbolchilar. Avvalroq Xalqaro Regbi Futbol Kengashi (IRFB) va Xalqaro Regbi Kengashi (IRB) deb nomlangan Jahon regbi, 1886 yildan beri regbi uyushmasini boshqaruvchi organ bo'lib kelgan va hozirgi kunda 101 mamlakat to'laqonli a'zo va 18 ta assotsiatsiyalangan a'zodir.

1845 yilda birinchi qonunlar regbi maktabida o'quvchilar tomonidan yozilgan; regbining dastlabki rivojlanishidagi boshqa muhim voqealar qatoriga Blackheath F.C. 1863 yilda Futbol Assotsiatsiyasini tark etish va 1895 yilda regbi ittifoqi va regbi ligasi o'rtasida bo'linish. Tarixiy regbi uyushmasi havaskor sport turi bo'lgan, ammo 1995 yilda o'yinchilarga to'lash bo'yicha rasmiy cheklovlar olib tashlanib, o'yin birinchi marotaba eng yuqori darajada ochiq professional darajaga ko'tarilgan.

Regbi uyushmasi Buyuk Britaniya va Irlandiyaning Uy millatlaridan, shu qatorda Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika va Frantsiyadan boshqa sport turlari bilan shug'ullangan. Ushbu sport turi asosan Britaniya orollari, Frantsiya, Avstraliya, Janubiy Afrika, Argentina va ozgina darajada Italiya, Urugvay, AQSH, Kanada va Yaponiyada kuzatiladi. Britaniya imperiyasining kengayishi va Evropada frantsuz tarafdorlari (regbi Evropa) orqali. Regbi ittifoqini amalda milliy sport turi sifatida qabul qilgan mamlakatlar qatoriga Fidji, Gruziya, Madagaskar, Yangi Zelandiya, Samoa, Tonga va Uels kiradi.

Birinchi sinov, ya'ni barcha xalqaro tashkilotlar tomonidan rasman tan olingan, o'yin 1871 yil 27 martda bo'lib o'tdi - Shotlandiya va Angliya jamoalari Edinburgda uchrashishdi. 1881 yilga kelib, milliy jamoalar Irlandiya va Uelsda paydo bo'lishdi va 1883 yildan boshlab to'rtta Angliya jamoalari Uydagi Millatlar Kubogi uchun har yili musobaqalasha boshladilar. O'sha yili birinchi regbi-yeds turniri (Melrose Sevens) bo'lib o'tdi, regbi turi bo'lib, unda jamoalar etti o'yinchidan iborat bo'lib, uchrashuv etti daqiqaning ikki yarmida bo'lib o'tadi. Besh yil o'tgach, Britaniya orollarining milliy jamoasi Avstraliya va Yangi Zelandiyaga gastrol safariga jo'nadilar. Regbi o'yinchilari Avstraliyaga individual ravishda borishdi, ammo keyin Britaniya regbichilarining sayohatlari odatiy holga aylandi.

Xalqaro o'yinlar 1871 yildan beri birinchi o'yin Shotlandiya va Angliya o'rtasida Edinburgdagi Reburn Pleys maydonida bo'lib o'tgan.

1920-yillardan beri Angliya, Irlandiya, Uels va Shotlandiya eng yaxshi sportchilaridan iborat guruh Angliya Arslonlari (2001 yildan - Britaniya va Irlandiya Arslonlari) sifatida tanilgan. Shuningdek, 1888 yilda Yangi Zelandiya aborigen milliy jamoasi Buyuk Britaniyaga tashrif buyurdi. 1886 yilda Uels, Irlandiya va Shotlandiya sport vakillarini birlashtirgan Xalqaro Regbi Kengashi (IRB) tashkil etildi. Angliya 1890 yilda kengashga qo'shildi va 1949 yilgacha Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika a'zo bo'ldi. Frantsiya, Argentina, Tinch okean regbi davlatlari va boshqa davlatlar uning a'zolariga aylangan XX asrning so'nggi choragida tashkilot haqiqatan ham xalqaro va global miqyosga ega bo'ldi.



1905-1909 yillarda Janubiy yarim sharning uchta kuchli milliy jamoasi - Avstraliya (1908-1909), Yangi Zelandiya (1905-1906) va Janubiy Afrika (1906-1907) - Evropa va AQShda gastrol safarlarida bo'lishdi. Xorijiy jamoalar mezbonlarni innovatsion o'yin uslubi, yuqori darajadagi jismoniy va taktik tayyorgarligi bilan hayratda qoldirishdi va mahalliy sport mutaxassislarining barcha kutganlaridan yuqori bo'lishdi. Har bir o'yin oldidan yangi zelandiyaliklar Maori haka raqsini ijro etishdi, bu keyinchalik milliy ham, umuman regbi ham asosiy ramzlaridan biriga aylandi. Qizig'i shundaki, jamoaning Uels bilan bo'lgan o'yinida Uelslik futbolchi Teddi Morgan muxlislarni Yangi Zelandiyaliklarning harakatlariga javoban Hen Wlad Fy Nhadau madhiyasini kuylashga undagan. Ushbu o'yin sport tarixida birinchi marta musobaqaning boshlanishi ishtirokchining madhiyasi bilan yangraganda. 1905 yilda Frantsiya Angliya jamoasi bilan o'ynab xalqaro debyutini o'tkazdi. XX asr boshlarida regbi Olimpiya o'yinlarida to'rt marta namoyish etildi.

